QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2023 - yil 5 - dekabr 394-4-69-Q/23 Qarshi shahar hokimligi

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun qo‘yiladigan ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son Qonunining 38-39-40-41-42-43 moddalari) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017y. 09/17/965/0393-son)da belgilangan vazifalar ijrosi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y., 9-son, 320-modda) 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati o‘rtacha sonining 7 foizi miqdorida, bu 576 kishini (2-ilovaga muvofiq) tashkil etadi. Shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz

otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 26 foiz (148 kishi);

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun 29 foiz (169 kishi);

-"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 25 foiz (145 kishi);

-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 4 foiz (24 kishi);

-nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (18 kishi);

-pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 5 foiz (27 kishi);

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 3 foiz (18 kishi);

-odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1 foiz (4 kishi);

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun 4 foiz (23 kishi).

3. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

-nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

-yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

-14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga

qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

-jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

4. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Qarshi shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi xabardor qilinsin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Qarshi shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

6. Ushbu qarorda nogironlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha Qarshi shahar hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

8. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5 kunigacha Qarshi shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etib borsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami No-3163-son, 31.05.2019y.) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona

vatashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

10. Qarshi shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (N.Xonqulova)ga bir hafta muddatda, mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Qarshi shahar hokimining 2022-yil 15-sentabrdagi 570-4-69-Q/22-sonli qarori 2023-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari S.Qayumov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Qarshi shahar hokimi **N.Xolboyev**

Qarshi shahar hokimining
2023-yil 5-dekabrdagi
394-4-69-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarning soni o'zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o'rinlarining eng kam soni va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi

T/r	**F. I. SH**	**Lavozimi**
1	S.Qayumov	Qarshi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ’ Z O L A R I		
2	N.Xonqulova	Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	F.Ibragimov	Qarshi shahar IIO FMB boshlig‘i
4	R.Mansurov	Qarshi shahar mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5	SH.Ashurov	Qarshi shahar moliya bo‘limi mudiri
6	B.Muminov	Qarshi shahar maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi boshlig‘i
7	A.Boltayev	Qarshi tumanlararo 39-TIEK raisi

Qarshi shahar hokimining
2023-yil 5-dekabrdagi
394-4-69-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qarshi shahar bo'yicha 2024-yilda Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining MANZILLI RO'YXATI

T|r	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona, tashkilot va muassasalar nomi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni (birlik)	Kelgusi yilga zahiraga qo‘yish uchun taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni (7%)	*shu jumladan*								
				O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun	"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun (3%)	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun	Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun
1	Qashqadaryo suv ta'minoti MCHJ	1134	**17**	5	8	3	1					
2	Qarshi shahar 6-oilaviy poliklinikasi	210	**5**	1	1	1		1				1
3	Qarshi shahar tug'ruq kompleksi	498	**11**	3	2	3		1	1			1
4	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg`armasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi	327	**7**	1	1	1	1	1	1	1		
5	29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	150	**4**	1	1	2						
6	Keksalar va nogironligi bo`lgan shaxslar urush va mehnat faxriylari uchun Qarshi sanatoriysi	79	**3**		1	1			1			
7	"ISHGA MARHAMAT" monomarkazi	105	**3**	1	1	1						
8	34-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	**3**	1	1	1						
9	10-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	38	**2**	**1**	1							
10	9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	136	**4**	1	2	1						
11	8-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	46	**2**	**1**	1							
12	Qashqadaryo viloyat onkologiya dispanseri	256	**7**	2	3	2						
13	36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	110	**3**	1	1	1						
14	37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	**3**	1	1	1						
15	Qarshi shahridagi informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan 42-tayanch maktabi	74	**3**	1	1	1						
16	31-umumiy o'rta ta'lim maktabi	157	**4**	1	1	2						
17	Qashqadaryo viloyat 18-ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan Davlat ta'lim muassasi	217	**4**	1	1	2						
18	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	**3**	1	1	1						
19	42-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	29	**2**	**1**	1							
20	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali	318	**5**		1	1	1		1			1
21	45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	116	**3**	1	1	1						
22	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	**2**		1	1						
23	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	**3**	1	1	1						
24	33-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab	116	**3**	1	1	1						

25	46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	101	**3**	1	1	1						
26	24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	122	**4**	1	2	1						
27	12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	116	**3**	1	1	1						
28	9-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	84	**3**	1	1	1						
29	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	202	**4**	1	1	1			1			
30	26-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	53	**2**	**1**	1							
31	28-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	29	**2**	**1**	1							
32	25-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	52	**2**	**1**	1							
33	1-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	40	**2**	**1**	1							
34	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	119	**3**	1	1	1						
35	30-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	34	**2**	**1**	1							
36	3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	40	**2**	**1**	1							
37	Qarshi shahar 1-oilaviy poliklinikasi	192	**5**	1	1	1		1	1			
38	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	67	**2**	1	1							
39	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	92	**3**	1	1	1						
40	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	**3**	1	1	1						
41	Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	142	**5**		1	1		1		1		1
42	Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Qashqadaryo filiali	119	**3**					1		1		1
43	Qarshi "MURUVVAT" nogironligi bo`lgan bolalar uchun internat uyi	405	**7**	2	2	2						1
44	Qarshi mintaqaviy temir yo‘l o‘zili	600	**8**		3	4	1					
45	11-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	32	**2**	**1**	1							
46	Qashqadaryo viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi	175	**5**	1		2		1		1		
47	27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	113	**3**		1	1			1			
48	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi	95	**3**	1	1	1						
49	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stantsiyalari va energetika boshqarmasi	846	**13**	3	2	3	1	1	2			1
50	7-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	30	**2**	**1**	1							
51	Qashqadaryo viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi	65	**2**			**1**			**1**			
52	6-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	42	**2**	**1**	1							
53	41-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o`rta ta`lim maktabi	88	**3**	1	1	1						
54	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	70	**3**	1	1	1						
55	Qarshi Davlat Universiteti	1079	**13**	2	2	3	1	1	2	1		1
56	17-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta`lim muassasasi	252	**4**	1	1	2						
57	Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi	139	**3**		1	1			1			
58	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi gaznachilik xizmati qomitasining Qashqadaryo viloyati gaznachilik xizmati boshqarmasi	134	**3**		1	1			1			
59	Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi	692	**11**	1	3	1	1	1	1	1	1	1
60	Qarshi shahar 3-oilaviy poliklinikasi	188	**3**		1		1			1		

61	Sayido nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi	66	**2**		1							1
62	Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi	1996	**11**	3	1	2	1	1	1	1		1
63	Qarshi shahar sport maktabi	57	**3**	1	1	1						
64	Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti	1296	**5**			3	1		1			
65	18-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	55	**2**	**1**	1							
66	Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi	421	**7**	2	1	2		1	1			
67	Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi	114	**4**	1	1	1	1					
68	43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	121	**3**	1	1	1						
69	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qashqadaryo filiali	973	**11**	1	2	2	1	1	1	1	1	1
70	O`zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta`lim vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari agentligi tizimidagi Qarshi shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati	55	**2**									2
71	43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	30	**2**	**1**	1							
72	45-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	29	**2**	**1**	1							
73	Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	53	**3**			1				1		1
74	47-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	52	**2**	**1**	1							
75	23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	197	**5**	1	2	1			1			
76	39-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	58	**2**	**1**	1							
77	50-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	48	**2**	**1**	1							
78	17-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	55	**2**	**1**	1							
79	Qashqadaryo viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasi	117	**3**		1	1			1			
80	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	172	**4**	1	1	2						
81	22-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	26	**2**	**1**	1							
82	44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	149	**4**	1	1	2						
83	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	**3**	1	1	1						
84	14-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	60	**2**	**1**	1							
85	O'zbekiston davlat filarmoniyasi Qashqadaryo viloyat bo'linmasi	54	**2**	1		1						
86	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	120	**3**	1	1	1						
87	Qarshi shahar 5-oilaviy poliklinikasi	160	**3**	1	1	1						
88	Qashqadaryo viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi	705	**10**	3	2	3	1					1
89	Qashqadaryo viloyat bolalar stomatologiya poliklinikasi	101	**3**	1	1	1						
90	12-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	41	**2**	**1**	1							
91	15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	186	**4**	1	1	2						
92	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	110	**3**	1	1	1						
93	49-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	31	**2**	**1**	1							
94	1-sonli ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktab-internati	72	**3**	1	1	1						
95	Qashqadaryo viloyati Ichki Ishlar boshqarmasi tasarrufidagi "YULDUZCHA" nomli maktabgacha ta'lim tashkiloti	71	**2**	**1**	1							
96	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	**3**	1	1	1						
97	1-sonli ixtisoslashtirilgan umumiy u'rta ta'lim maktabi	224	**4**	1	2	1						
98	41-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	26	**2**	**1**	1							
99	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	**3**	1	1	1						
100	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	**3**	1	1	1						
101	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	83	**3**	1	1	1						
102	9-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	30	**2**	**1**	1							
103	32-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	45	**2**	**1**	1							
104	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	**3**	1	1	1						
105	40-umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	**3**	1	1	1						
106	1-sonli asab-ruhiy kasaliklar dispanseri	374	**7**	1	2	2			1			1
107	Qashqadaryo viloyat ruhiy asab kasalliklari shifoxonasi	170	**5**	1	1	1	1					1
108	Olimpiya va milliy sport turlari bo`yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati	72	**3**			1		1				1

109	O`zbekiston Respublikasi Suv xo`jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	119	**4**		1	1	1			1		
110	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyat filiali	547	**7**	1	1	1	1			1	1	1
111	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	133	**3**	1	1	1						
112	8-sonli umumiy o'rta talim maktabi	103	**3**	1	1	1						
113	Qahsqadaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli "MAXSUS VA TEZ TIBBIY YORDAM AVTOXO'JALIGI"	1473	**17**	5	3	4	1	1	1	1		1
114	"OBODONLASHTIRISH" boshqarmasi	920	**11**	3	1	2	1	1	1	1		1
115	38-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	28	**2**	**1**	1							
116	18-sonli umumiy o'rta talim maktabi	86	**3**	1	1	1						
117	Qarshi shahar kasb-hunar maktabi	74	**3**	1	1	1						
118	29-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	50	**2**	**1**	1							
119	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	**3**	1	1	1						
120	48-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	90	**2**	**1**	1							
121	46-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	62	**2**	**1**	1							
122	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	93	**3**	1	1	1						
123	Qashqadaryo viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi	1251	**13**	2	3	4	1	1	1	1		
124	Respublika ixtisoslashgan kardiologiya markazi Qarshi filiali	275	**7**	2	1	2	1			1		
125	Qarshi temir yo'l shifoxonasi	291	**7**	2	3	2						
126	23-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	33	**2**	**1**	1							
127	Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi	270	**3**	1	1	1						
128	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	122	**3**	1	1	1						
129	"QASHQADARYO YO`LLARDAN MUNTAZAM FOYDALANISH" unitar korxonasi	548	**5**		1	2	1			1		
130	27-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	43	**2**	**1**	1							
131	36-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	42	**2**	**1**	1							
132	22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	**3**	1	1	1						
133	35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	116	**3**	1	1	1						
134	25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	124	**4**	1	2	1						
135	Qarshi shahar 2-oilaviy poliklinikasi	103	**2**	1	1							
136	Qarshi shahar 4-oilaviy poliklinikasi	165	**3**		1	1			1			
137	Hududiy elektir tarmoqlari AJ Qashqadaryo hududiy filiali	2356	**15**	4	5	4	1			1		
138	Qashqadaryo viloyat qon xizmati markazi	95	**2**		1	1						
139	Qashqadaryo viloyat "OITS" ga qarshi kurash markazi	194	**3**		1	1	1					
140	Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qarshi filiali	630	**12**	2	2	3	1	1	1		1	1
141	Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasi	82	**3**	1	1	1						
	Жами	**31307**	**576**	**148**	**169**	**145**	**24**	**18**	**27**	**18**	**4**	**23**

Qarshi shahar hokimining
2023-yil 5-dekabrdagi
394-4-69-Q/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil "_____ "oyi uchun Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining zahiraga qo'yish to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

1. Shahar hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari soni.

2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	**Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)**	**ulardan ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot oyida	**yil boshidan boshlab**
Жами:			
шу жумладан:			
O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun			
Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun			
"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun			
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun			
Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun			
Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun			
Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun			
Odam savdosidan jabrlanganlar uchun			
Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun			

3. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarining bo'sh ish o'rinlari soni, hisobot davri oxiriga ish o‘rinlari.